



УДК:81.622.1'27

Dildora PULATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: pulatovadildora0@gmail.com

F.f.d., prof.v.b. M.Abdurahmanova taqrizi asosida

SOCIOPRAGMATIC ANALYSIS OF PERSONAL DEIXIS IN UZBEK LITERARY TEXTS

Annotation

The article explores the sociopragmatic features of personal deixis in Uzbek literary texts. The study analyzes the communicative, emotional, and social functions of deictic units referring to persons in speech interaction. Examples from works by A. Qahhor, O. Hoshimov and T. Malik illustrate how personal deixis reflects sociolinguistic relations and pragmatic meanings in context.

Key words: Deixis, personal deixis, sociolinguistics, pragmatics, address, literary text, communication.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРСОНАЛЬНОЙ ДЕЙКСИС В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В статье освещаются социопрagmaticкие особенности персональной дейксис в узбекских художественных текстах. Анализируются коммуникативные, эмоциональные и социальные функции дейктических единиц, указывающих на лицо, в процессе речевого общения. На основе примеров из произведений таких писателей, как А. Каххор, О. Хошимов и Т. Малик раскрывается социолингвистическое и прагматическое содержание персональной дейксис.

Ключевые слова: Дейксис, персональная дейксис, социолингвистика, прагматика, обращение, художественный текст, коммуникативная функция.

ЎЗБЕК БАДИЙ МАТНЛАРИДА ШАХС ДЕЙКСИСИНИНГ СОЦИОПРАГМАТИК ТАХЛИЛИ

Аннотация

Maqolada o'zbek badiiy matnlarida shaxs deyksisining sotsiopragmatik xususiyatlari yoritilgan. Shaxsga ishora qiluvchi deyktik birliklarning nutqiy muloqotdagi kommunikativ, emosional va ijtimoiy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda A. Qahhor, O. Hoshimov va T. Malik kabi yozuvchilar asarlaridan misollar asosida shaxs deyksisining sotsiolingvistik va pragmatik mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Deyksis, shaxs deyksisi, sotsiolingvistik, pragmatika, murojaat, badiiy matn, kommunikativ vazifa.

Kirish. Deyksis nazariyasi XX asrning II yarmidan boshlab jahon tilshunosligida barcha yo'nalishlar uchun birdek xizmat qiladigan kategoriya sifatida o'rganila boshlandi. "Deyksis" yunoncha so'zdan olingan bo'lib, gapirayotgan shaxs yoki suhbat jarayoni, predmet, voqea-hodisa kabilarga ishora qilish ma'nosida qo'llaniladi [1]. Deyksis tilshunoslik termini sifatida o'rganila boshlangach, bu borada turlicha qarashlar yuzaga keldi [2]. Endilikda bu tushuncha nutqiy maqsad va nutq vaziyatiga aloqador ekanligiga urg'u bergan holda pragmatiklikning o'rganish obyekti sifatida tadqiq etila boshlandi. Bu muammo dastlab nemis olimi K.Brugmann tomonidan chuqur o'rganilgan [3]. Keyinchalik uning tadqiqotlari K.Byuller tomonidan rivojlantirildi. K.Byuller o'zining "Til nazariyasi" nomli kitobida deyksisning mohiyati, turlari, deyktik birliklarning muloqot jarayonidagi vazifasi haqida ilmiy mulohazalarini bildirdi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shundan so'ng boshqa ko'plab tilshunoslar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Ilk tadqiqotlar ichida Z.M.Mallayeva, J.Layonz, Ch.Pirs, R.Yakobson, I.A.Sternin, I.V.Shmatova, S.Levinsonlarning ishlari alohida o'rin tutadi [5]. Ularning tadqiqotlarida tilning deyktik birliklari matn bilan bog'liq ravishda o'rganiladigan, pragmatik jihatdan keng tadqiq etilishi mumkin bo'lgan til hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda o'zbek olimlari ham bu hodisaga qiziqish bildira boshlashdi. Tilshunoslar Sh.Safarov, D.Lutfullayyeva, R.Davlatova, M.Qurbonova va boshqalarning tadqiqotlarida deyksis nazariyasi oid qarashlar atroflicha o'rganildi [6].

Muloqot jarayonining har bir qirrasida deyktik birliklarni uchratish mumkin. Xususan, inson so'zlayotgan vaqtida zamon, makon, ijtimoiy muhit, biror shaxs yoki predmetga ishora berishi aniq. Ana shunday ishoraviy birliklar deyktik so'zlar sanaladi.

Bugungi kun tilshunosligining muhim belgilaridan biri ilmiy tadqiqotlar markazida inson omilining ustun qilib qo'yilishidir. Bu antroposentrizm nomi bilan atalib amaliy tilshunoslikning har bir sohasi uchun pirovard masalalardan sanaladi. Xuddi shuningdek, deyksis nazariyasini o'rganish va tadqiq etishdan maqsadi ostida insoniyat muloqot jarayonini atroflicha o'rganish, ishoraviy belgilarga ahamiyat berish va shu orqali nutqning mukammal va ravonligiga erishish kabi masalalar yotadi. Deyksis kategoriyasi so'zlashuv, muloqot jarayoniga chuqurroq kirib boruvchi kategoriyalar qatoriga kiradi va u nutqni shakllantiruvchi vositalarni tubdan tadqiq etadi.

So'nggi yillarda tilshunoslar "matnli deyksis" tushunchasiga murojaat qilishdi, chunki matn muloqotning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Murakkab sintaktik qurilma sifatida etirof etiladigan matn tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni deyktik birliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi [7]. Deyktik birliklar ishora birliklari bo'lib, matn semantik qurilishida o'ziga xos o'rin tutadi. Har qanday matnning obyektiv mazmunida voqelik yuz bergan makon, zamon, so'zlovchining nutqiy maqsadi, niyatiga ishora sifatida deyktik birliklar mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra ayrim manbalarda, deyksisga "nutqning o'ziga xos tabiiy mavjudligi"

sifatida qaraladi [8]. Zotan, nutqning tabiiyligi va sofligini ta'minlab beruvchi vositalardan biri deytik birliklardir. Mazkur birliklar tilshunoslikda R.Lakoff, Ch.Fillmor, K.Byuller kabi olimlar tomonidan kontekst deysis termini bilan nomlangan [9]. Bunda ko'proq deytik birliklarning matnning tarkibiy qismi ekanligiga urg'u berilgan. Ayrim tadqiqotlarda "diskurs" termini matn termini bilan sinonimik tarzda qo'llanishi, "kontekst" termini yesa so'z birikmasi va gap sifatida ham tushunilishi mumkin. Yuqoridagi qo'llanishlarning (diskurs, kontekst) barchasida ham matn tarkibiy qismlari nazarda tutilgan. Matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi deytik birliklar nutq parchalarining yoki tuzilma tarkibining uzviy bog'liqligini, uning mazmunan yaxlitligini ta'minlovchi zanjir vazifasini bajaradi. Bu birliklar matnning muayyan qismiga ishora qilish bilan deytik xususiyatini namoyon etadi hamda tarkibiy qismlar o'rtasida sintaktik aloqani o'rnatib, bog'lovchilik vazifasini ham bajaradi.

Mazkur deytik birliklar matn tarkibiy qismlarini mazmunan bog'lash bilan birga, matn tuzilishidagi izchillikni ta'minlash, matnda aks etgan axborotga tinglovchi diqqatini jalb qilish maqsadlarini yuzaga chiqarishda ham faol qo'llanadi.

Demak, deytik birliklar faqatgina pragmatiklikni emas, balki diskurs nazariyasi, matn lingvistikasi va sotsiolingvistikasi kabi tilshunoslik sohalarining ham o'rganish obyekti sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Deytik birliklar sifatida o'zbek tilidagi ayrim olmosh va olmoshli qurilmalar, ba'zi mustaqil (son, ravish) va yordamchi so'zlar, kirish qurilmalar, ayrim so'z birikmalari va gaplar misol keltirish mumkin [7]. Bu birliklar o'zi qo'llangan gapdan oldingi yoki keyingi qismga ishora qilib, deytik xususiyat kasb etadi. Mazkur birliklar matnning pragmatik xususiyatini yanada aniqroq ifodalashga yordam beradi. Matnda oldingi tarkibiy qismga ishora qiluvchi deytik birliklar, matnda keyingi tarkibiy qismga ishora qiluvchi deytik birliklar hamda matnda oldingi va keyingi qismga ishora qiluvchi deytik birliklar tarzidagi [7] ushbu tasnif matndagi voqelikka ishoraviy birliklarning qo'llanilish yo'nalishini belgilab beradi.

Ma'lumki, deytik birliklar muloqot jarayoni bilan hamohang bo'lib, uch turga ko'ra talqin qilinadi: shaxs, makon va zamonga qaratilgan deytik ishoralar [10]. A.A.Kibriy shaxs deysisini predmet deysisining bir aspekti deb qaraydi. Uning e'tirof etishicha, shaxsga va predmetga ishora qilish predmet deysisini yuzaga keltiradi [11]. Tadqiqotchi tomonidan shaxs va predmetni ifodalovchi deysis deysisining alohida-alohida turlaridir, chunki uning maydon markazida shaxs turadi, – degan fikr ilgari surilgan [12]. Bu esa shaxsga xos ishora belgilari deysisining alohida bir turi sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Muayyan til birliklari nutqiy muloqotda qo'llanilib ma'lum bir shaxsga ishora qiladi. Natijada shaxs deysisi yuzaga keladi. Shaxsga ishora qiluvchi birliklar esa shaxs deysisini ifodalovchi deytik birliklar tarzida talqin etiladi. Deytik birliklar insonning ijtimoiy mavqeyiga ham ishora qilishi mumkin. Bunda so'zlovchi va tinglovchining jamiyatdagi o'rni: kasb-kori, ijtimoiy kelib-chiqishi, qatlami kabi belgilariga ishora qilishi mumkin. Bu sotsial deysis deb atalib olina R.Davlatova tomonidan ijtimoiy holat deysisi, – deya talqin etilgan.

Ushbu deysis turini jahon tilshunosligida, dastlab, Ch.Fillmor makon, zamon, shaxs deysisi qatorida yangi tur sifatida fanga kiritgan [9]. Ushbu tasnif J.Renkema, S.Levinson, G.Rauchlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi va an'anaviy uch turga ega deytik birliklar sirasiga ijtimoiy holat deysisi ham tarkibiy qismi sifatida birlashtirildi [10]. Bu borada

olim Sh.Safarov suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita va boshqa ko'rinishlarga ega bo'lishi, bu turdagi munosabatlarning barchasi sotsial deysis hodisasi mundarijasini tashkil qilishini qayd etgan [7].

Deyksisni yuzaga keltiruvchi vositalar ichida matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi birliklar, shuningdek, murojaatga oid shakllar alohida ahamiyatga ega. Mazkur birliklar tilshunoslikda R.Lakoff, Ch.Fillmor va Sh.Safarovlar tomonidan diskurs deysisi, D.A.Akselrud tomonidan matn deysisi, K.Byuller tomonidan kontekst deysisi terminlari bilan nomlangan.

Til birliklaridan foydalanish ko'p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy (sotsial-psixik) tomonlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi sotsial tilshunoslikdan (ijtimoiy tilshunoslikdan) farqli o'laroq, lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini o'rganuvchi maxsus fan – lingvistikaning yangi sohasi sotsiolingvistika shakllandi [13]. Bugungi kunda sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Boisi tilshunoslikning tadqiq manbai til, til esa faqat insoniy jamiyatda muloqot vositasi sifatida yashagan va yashaydi.

XX asrning 50-yillaridan keyin tilshunoslikka pragmatik yondashish keng tus olganligi yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar misolida ko'rildi [14]. O'zbek tilida insonlar orasidagi muloqot jarayonida qo'llaniladigan murojaat shakllarini yangicha aspektga tadqiq qilish, ya'ni pragmatik, yoki sotsiopragmatik tadqiq nutqning faqat lisoniy xususiyatlarini ochib beribgina qolmasdan, nutq jarayonida murojaat shakllarining ijtimoiy funksiyasi, turli xil jihatdan xoslanishi, nutq jarayonida murojaat shakllarining milliy tafakkur va milliylik bilan aloqadorligi, nutqning madaniyat bilan aloqadorligi kabi ko'plab jihatlarni atroflicha yoritishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar. O'zaro muloqot jarayonida so'zlovchi (adresat) va tinglovchi (adresant)ning maqsadlari o'zaro birlashib maqsadli muloqotni yuzaga keltiradi. Adresat va adresant o'rtasidagi munosabatlar yoshi, jinsi, qarindoshligi, ijtimoiy vazifasi (katta, teng, kichik), ijtimoiy mavqeyi (yosh, do'sti, tanish, notanish), aloqa muhiti (rasmiiy, norasmiiy), aloqa masofasi (uzoq, yaqin), aloqa maqsadi (e'tiborni jalb qilish, suhbatdoshga munosabatini bildirish, so'rashish, kechirim so'rash va h.), muloqot ohangi (rasmiiy, samimiiy, kinoya, ta'ndashnom, yalinish, yolvorish) bilim darajasi muloqotning qanday yakun topishiga katta ta'sir ko'rsatadi [15].

Har qanday til birliklarida bo'lgani kabi murojaat shakllarining pragmatik jihati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turli xil ma'nolarni ifodalovchi bunday birliklar muloqot jarayonida asosiy proppozitsiyaga qo'shimcha ma'nolarni yuklaydi. Deytik birliklar murojaat shakli sifatida matnda qatnashgan nutqni qabul qiluvchiga nisbatan shaxs, predmet, zamon, ijtimoiy muhit kabilarga ishora sezilib turadi. Masalan: Yosh bir juvon mahalladagi hamma erkaklarga laqab qo'yib hammaning ichagini uzadi: Madaminni – talmov, bu odam hamisha talmovsirar ekan; G'ani – salang, bu odam juda novcha bo'lib, salanglab yurar ekan; Nurmatam tajang, bu odamning hech to'g'ri gapi yo'q, nima desa xunob bo'lib aytar ekan. (A.Qahhor. O'tmishdan ertaklar. – B. 199.) Ushbu misoldagi qahramonlarga qo'yilgan salang, talmov, tajang laqablari shaxsga xos bo'lgan individual belgilar: xarakter-xususiyat, odob-axloqiga xos bo'lgan jihatlarga ishora tarzida qo'llangan. Bu esa suhbat jarayonining tabiiyligi, jonli muhitda voqelanaoyotganligiga ishora tarzida namoyon bo'ladi. Shuningdek, xususiyatga ishora berish orqali murojaat etilayotgan shaxsga nisbatan kitobxondan aniq tasavvurni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Zotan, pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Bu esa nutqiy vaziyatning tabiiyligi va jonliligini belgilab beradi [7].

Deyktik birliklar ma'lum maqsadni ko'zlagan holda yuzaga keladi, masalan, insonning tashqi ko'rinishi, uning jismoniy yoki ruhiy kamchiligi, xarakter xususiyatiga ishora qilish niyatida ham bu birliklardan murojaat shakli sifatida foydalanish mumkin. Masalan: "Ovozini o'chir, pakana!", – deb bir musht ko'tarsa, oyim pildirpis bo'lib qoldi. Izoh: Ammam xuddi koptokka o'xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq. Tag'in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 24.); "Iya, qoravoy, sizniyam burningiz oqib ketdi-ku artib oling, tasadduq". Izoh: Ermon buva mahallada To'y deb nom olgan, qorachadan kelgan, harflarni to'g'ri ayta olmaydigan bolani shunday chaqiradi. (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari. – B. 62.);

Bolalar nutqida laqab sifatida qo'llangan disfemizmlar ham deyktik vazifa bajaradi. Tashqi belgiga ko'ra o'xshashlik asosida metaforik shaxs deksisini hosil qiluvchi disfemizmlar maktab yoshidagi bolalar nutqida ko'p uchraydi [16]. Disfemizm kishilarni o'z nomlari bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilgan jonivor yoki narsa nomi bilan atashdir. Disfemizmlarga misol qilib cho'chqa, tulki, ilon, chayon, eshak, mol, ho'kiz kabi so'zlarni keltirish mumkin. Muloqotda disfemizmlarni qo'llash so'zlovchining tinglovchiga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini bil diradi. Masalan, maktab yoshidagi bolalar nutqida laqab sifatida qo'llanadi. Uzun bo'lyi bolaga nisbatan laylak, sekin yuradigan bolaga nisbatan toshbaqa va h. so'zlarni qo'llash hamda ushbu so'zlar bilan chaqirish holatlarini ko'plab kuzatish mumkin: Hoy, "Laylak", qayerga ketyapsan? (Maktabda bolalar Sarvarni "Laylak" deb chaqirishadi). (Muxsinov Diyorbek, 14 yosh).

Nutqiy muloqotda pragmatik mazmun oydinlashishida nutq, so'zlanayotgan mazmun, vaziyat, so'zlovchi va tinglovchining ma'nan, ruhan, aqlan yaqinligi kabi omillar ham yordamga keladi [17]. Ba'zan deyktik birliklar shaxsning bajarib turgan vazifasi, xatti-harakatiga ishorani ham ifoda etishi mumkin.

Ikromjon unga: "Xoin!, qochoq!, nomard!, iflos!, it! Tur o'ringdan"-deb qichqirardi. Izoh: Ikromjon urushdan qochgan, o'z vataniga xoinlik, nomardlik qilgan va dashtda itdan battar ahvolda yashirinib yurgan o'g'liga nisbatan ishlatgan so'zlari. (S.Ahmad. Ufq. – B. 466.);

– Bo'tqa! – deb baqirdi. Bo'tqa – video bar egasi Kenjaning laqabi. U Asadbek kirib ketgach, joyiga borib o'tirmay, eshik og'zida turgan edi. Xo'jayinning qahrli ovozi eshitgach, shoshilib kirdi. – Labbay, okaxon, – dedi qo'l qovushtirib. Asadbek hech narsa demay teskari shapaloq tortib yubordi. – Shu yerni ham harom qildingmi, hayvon! – dedi Asadbek unga qaramay. Izoh: Asadbek Kenjabekni pala-partish bo'tqadek ahvolda yurganligi uchun shunday ataydi (T.Malik. Shaytanat. – B. 39.).

Pragmatika so'zlovchining moddiy borliqqa, xabarning mazmuniga, adresat (tinglovchi)ga bo'lgan munosabatini ifodalay ekan so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ aktidagi ishtirokida gap ohangi (ishonch, qat'iyat, dadillik, qo'rquv, ishonchsizlik, gumon, hadik, xursandlik va boshqalar), lug'aviy birliklardan foydalanish, noverbal vositalarni qo'llash kabi kommunikativ unsurlar ahamiyatli sanaladi va kommunikantlar haqida qo'shimcha xabar beradi [18]. Insonning xatti-harakati mahsuli sifatida yuzaga kelgan laqablar ham deyktik birlik sifatida xizmat qiladi. Masalan, Qayoqdan bilaman, – dedi Zelixon akademik kulib. – Senam milisaga o'xshagan laqma ekansan-ku. – Leytenantligini bildingiz-ku? Zelixon qah-qah otib kuldi: – Bularda nima ko'p, leytenant ko'p... Izoh: Zelixonning laqabi "akademik" edi. (T.Malik. Shaytanat. – B. 50.) Til birliklarining pragmatik vazifasi kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlashuvchilarning til ko'nikmalari va nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlar bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi [19]. Nutqiy vaziyat muayyan bilan aloqadorlikda bo'lganligi bois shaxsiga nisbatan deyktik ifodada bu yaqqol namoyon bo'lyapti.

Xulosa va takliflar. Ko'pincha yosh bolalar nutqida qarindoshlik terminlari murojaat birligi sifatida qo'llanganda ushbu murojaat birliklariga deyktik vazifa yuklatiladi. Bola 8-9 oylik davridan boshlab talaffuzi qulay bo'lgan leksik birliklarni o'zlashtiradi. 10-11 oylik ba'zi bolalar muayyan birlikka ikki va undan ortiq deyktik vazifa yuklashi ham mumkin [16]. Masalan, turli hududda yashayotgan bolalar nutqi, demak, shevasi jihatidan farq qiladi va ularning nutqlarida ada, dada, daa so'zi orqali nafaqat otasi, balki onasi, bobosi, buvisi va boshqa oila a'zolarini ham chaqirishi kuzatilgan.

Deyktik birliklarning murojaat shakllari sifatida ifodalanishi, asosan, shaxsiga nisbatan ba'zan predmet va voqelikka ko'ra ishlatiladi. Shaxsiga nisbatan deyktik ifoda insonning xarakter-xususiyati, jismoniy yoki ruhiy kamchiligi va nuqsoni, tashqi ko'rinishi, nutqiy obyektiga, hatto shug'ullanayotgan faoliyatiga ishora tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa matn pragmatikasining tabiiyligi, jonli muhitga aloqador ekanligi va voqelikning hayotiylikini ta'minlab beruvchi vositalardan sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Лутфуллаева Д., Курбонова М. Болалар нутқиға хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. №6.
2. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – Москва.: Прогресс, 2000. – С 10.
3. Brugmann K. Kurze vergleichende Grammatik der Indogermanischen Sprachen. Strassburg: Verlag von Karl J. Trübner, 1904.
4. Byuller K. Sprachtheorie. Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena, 1934.
5. Маллаева З.М. Типология дейктических систем аварь-андийских языков. Андийские языки среди языков народов Дагестана. Материалы научно-практической конференции. Махачкала, 2011: – С. 69 – 71.
6. Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Ўзбек мuloкот матнининг дейктик бирликлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011.
7. Сафаров Ш. Прагматингвистика. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 16
8. Лутфуллаева Д., Курбонова М. Болалар нутқиға хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти, № 6. 2013.
9. Fillmore C.J. The Case for Case // Universals in Linguistic Theory. – London - NewYork - Sydney - Toronto, 1972. – P. 1-88.; Lakoff, "Language and Woman's Place". 1973; Lakoff "Language in Context".1972.
10. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020.
11. Кибрик А.А. Дейксис //

12. http://encyclopaedia.biga.ru/enc/liberal_arts/DEKSIS.html.
13. Namozova U. Language units representing the deixis of personality (on the example of Alisher Navoi poetic text). Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
14. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл.ред. В.Н.Ярцева. – Москва.: Сов. Энциклопедия, 1990. – Б. 481-482.
15. Философская энциклопедия. Словарь. – Москва, 1983. – С. 389-390.
16. Pulatova D.D. O'zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragsmatik tadqiqi: avtoref. diss. ... f.f.f.d. Qarshi, 2024.
17. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari. Fil.fan.dok. diss.avtoreferati. Toshkent, 2018. –B.18.
18. Karimova F. Dialoglarda pragmatikaning roli //Til va adabiyot ta'limi. 2006. № 3, – B.29.
19. Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 5-son, 2009. – B.79.
20. Lutfullayeva D., Jumayev F. O'zbek tili fe'llarining pragmatik xususiyatlari //O'zbek tili va adabiyoti, 2-son, 2008. – B.76.